# “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI EMOTSIONAL BIRLIKLARNING ARABCHA TARJIMADA LINGVOPRAGMATIK TRANSFORMATSIYASI

**Olimov Zuhrobiddin Shaxobiddin o‘g‘li**
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi emotsional birliklarning arab tiliga tarjimasida yuzaga kelgan lingvopragmatik transformatsiyalar tahlil qilinadi. Asliyat va Muhammad Nasriddin al-Jibali tomonidan amalga oshirilgan arabcha tarjima qiyoslanib, emotsional mazmunning saqlanishi, konkretlashishi, intensifikatsiyasi, neytrallashuvi hamda eksplikatsiyasi aniqlanadi. Tahlil natijalari semantik ekvivalentlik emotsional-pragmatik ekvivalentlikni har doim ham ta’minlamasligini, tarjimada hissiy ta’sirning qayta yaratilishi til birligining obrazli, konnotativ va pragmatik xususiyatlariga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** emotsionallik, badiiy tarjima, lingvopragmatika, emotsional birlik, arab tili, ekvivalentlik, intensifikatsiya, konkretlashtirish, eksplikatsiya, emotsional rezonans.

# LINGUOPRAGMATIC TRANSFORMATION OF EMOTIONAL UNITS IN THE ARABIC TRANSLATION OF THE NOVEL O‘TKAN KUNLAR

**Abstract.** This paper examines the linguopragmatic transformations of emotional units in the Arabic translation of Abdulla Qodiriy’s novel O‘tkan kunlar. By comparing the Uzbek source text with its Arabic translation by Mohamed Nasr Eldin El-Gebaly, the study identifies such transformations as preservation, concretization, intensification, neutralization, and explicitation of emotional meaning. The findings demonstrate that semantic equivalence does not necessarily ensure emotional-pragmatic equivalence, since the recreation of emotional impact in literary translation also depends on imagery, connotation, intensity, and pragmatic function.

**Keywords:** emotionality, literary translation, linguopragmatics, emotional unit, Arabic, equivalence, intensification, concretization, explicitation, emotional resonance.

**Kirish**

Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy asarning boshqa tilga o‘girilishi faqat mazmunni yetkazish jarayoni sifatida emas, balki asliyatdagi estetik, emotsional va pragmatik ta’sirni boshqa lingvomadaniy muhitda qayta yaratish jarayoni sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, tipologik jihatdan farqli tillar o‘rtasidagi tarjimada emotsional mazmunning qayta ifodalanishi murakkab muammolardan biridir. E. Nida referensial va emotiv ma’nolarni farqlab, bir xil denotativ mazmun turli tillarda aynan bir xil hissiy ta’sir hosil qilmasligi mumkinligini ko‘rsatadi. M. Bakerning pragmatik ekvivalentlik haqidagi qarashlari ham tarjimada kommunikativ vaziyat va retseptorning interpretatsiyasi muhimligini ta’kidlaydi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani emotsional mazmunning tilning turli sathlarida ifodalanishi bilan ajralib turadi. Qodiriy qahramonning ruhiy holatini faqat quvonmoq, qo‘rqmoq, g‘azablanmoq, xafa bo‘lmoq kabi bevosita emotsional leksemalar orqali emas, balki ko‘ngil, yurak, ko‘z, yuz, lab kabi somatik komponentlar, xalqona iboralar, metaforalar, noverbal reaksiyalar va sintaktik qurilmalar yordamida ham ifodalaydi. Shu sababli bunday birliklarning arab tiliga tarjimasini faqat lug‘aviy ekvivalentlik mezoni asosida baholash yetarli emas.

2024-yilda romanning Muhammad Nasriddin al-Jibali tomonidan amalga oshirilgan arabcha tarjimasi “الأيام الخوالي: قصة حب مريرة وقعت أحداثها في تركستان” nomi bilan nashr etilgan. Mazkur tarjima “O‘tkan kunlar”dagi emotsional mazmunning o‘zbek tilidan arab tiliga ko‘chishida yuzaga keladigan



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

semantik va pragmatik transformatsiyalarni o‘rganish uchun muhim qiyosiy material hisoblanadi. Arabcha tarjimada emotsional birliklarning saqlanishi bilan bir qatorda konkretlashtirish, kuchaytirish, eksplikatsiya va semantik torayish hodisalari kuzatiladi.

**Asosiy qism**

Emotsional birlik tarjimasida muhim hodisalardan biri emotsional ma’noning konkretlashtirilishidir. Masalan, romandagi “Nimadan bo‘lsa ham bu yigitka qarshi ko‘nglim jizillab turadir” (47-b.) jumlasi arabcha tarjimada “لكن يبدو أنه القدر أو ربما شيء آخر، لسبب ما أنا معجب بهذا الشاب” (82-b.) shaklida berilgan. O‘zbekcha ko‘nglim jizillab turadir birligi hissiy holatni bevosita nomlamaydi. Unda qahramonning hali o‘zi ham to‘liq anglab yetmagan ichki moyilligi va intuitiv hissiy tortilishi somatik-metaforik vosita orqali ifodalangan. Arabcha “أنا معجب بهذا الشاب” esa “men bu yigitni yoqtiraman” mazmunini ancha aniq ifodalaydi. Demak, ijobiy emotsional yo‘nalish saqlangan bo‘lsa-da, asliyatdagi psixologik noaniqlik bevosita nominatsiyaga aylangan. Mazkur hodisani emotsional-semantik konkretlashtirish sifatida baholash mumkin.

Ikkinchi holatda emotsional mazmunning intensifikatsiyasi kuzatiladi. Asliyatda “Otabek qizishdi” (74-b.) tarzida ixcham ifodalangan hissiy reaksiya arabcha tarjimada “استشاط غضبًا من كلام أتابيك هذا” (125-b.) shaklida beriladi. O‘zbekcha qizishdi kontekstda g‘azablanish ma’nosini anglatsa-da, uning intensivlik darajasi nisbatan umumiydir. Arabcha “استشاط غضبًا” esa kuchli g‘azab, qattiq jahllanish semasini eksplisit ravishda yuzaga chiqaradi. Natijada emotsiyaning turi saqlanadi, ammo uning gradatsion darajasi oshadi.

Boshqa holatda asliyatdagi obrazli emotsional ifoda maqsad tilida bevosita hissiy nominatsiyaga aylantiriladi. “Otabek suratdek qotib qoldi” (75-b.) arabcha variantda “ذهول تام” mazmunidagi birlik orqali berilgan (124-b.). Asliyatdagi suratdek qotib qolmoq qahramonning ruhiy zarba ta’sirida birdan harakatsiz holatga kelishini vizual obraz orqali ko‘rsatadi. Arabcha variantda esa ushbu vizual obrazdan ko‘ra qahramonning psixologik holati bevosita nomlanadi. Bu badiiy tarjimada semantik ekvivalentlik va obrazli-emotsional ekvivalentlik bir xil hodisa emasligini ko‘rsatadi.

Emotsional birliklarning tarjimasida asliyatdagi holatning arabcha matnda yanada eksplisit va ta’sirchan ifodalanishi ham kuzatiladi. Masalan, “Azizbek labini tishlab qoldi” (87-b.) jumlasi arabcha tarjimada “عض عزيز بك على شفتيه من شدة غيظه” (141-b.) shaklida ifodalangan. Asliyatda labini tishlamoq noverbal harakat orqali g‘azabni implitsit anglatadi. Arabcha tarjimada esa harakatning o‘zi saqlanishi bilan bir qatorda uning sababi “من شدة غيظه” — “qattiq g‘azabidan” komponenti yordamida ochib berilgan. Buni pragmatik-emotsional eksplikatsiya sifatida talqin qilish mumkin.

Keltirilgan misollar emotsional birlik tarjimasida “saqlandi” yoki “saqlanmadi” tarzidagi ikki qutbli baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bir birlikning denotativ mazmuni saqlangan holda uning obrazliligi kamayishi, emotsional intensivligi kuchayishi yoki implitsit semasi eksplitsit shaklga o‘tishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, badiiy tarjimadagi emotsional muvofiqlikni baholashda faqat semantik ma’noni emas, balki semantik mazmun, emotsional intensivlik, obrazlilik, konnotatsiya va pragmatik funksiya majmuasini hisobga olish maqsadga muvofiq. Mazkur komponentlarning maqsad tilida qay darajada qayta yaratilganligi tarjimaning emotsional rezonansini belgilaydi.

**Xulosa**

1. Asliyatdagi emotsional birliklar arab tiliga tarjimada formal jihatdan aynan takrorlanmay, ularning semantik va pragmatik tuzilishiga ko‘ra turli transformatsiyalarga uchrashi aniqlandi.

2. Emotsional mazmun tarjimada saqlanish bilan bir qatorda konkretlashtirish, intensifikatsiya, eksplikatsiya va obrazli neytrallashuv shakllarida qayta tashkil etilishi dalillandi.

3. Asliyatdagi implitsit emotsional holatning arabcha tarjimada bevosita nominatsiya qilinishi qahramon ruhiy holatini maqsad tilidagi o‘quvchiga aniqroq yetkazishi, biroq ayrim hollarda asliyatdagi psixologik noaniqlik yoki obrazlilikning qisqarishiga olib kelishi ko‘rsatildi.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4. Frazeologik va metaforik birliklarda semantik mazmunning saqlanishi obrazli-emotsional ekvivalentlikning to‘liq ta’minlanganini anglatmasligi asoslandi.

5. Badiiy tarjimada emotsional adekvatlikni baholashda semantik tenglik bilan bir qatorda emotsional intensivlik, obrazlilik, konnotatsiya va pragmatik ta’sirning qayta yaratilishini ham hisobga olish zarurligi tasdiqlandi.

Shunday qilib, “O‘tkan kunlar”ning arabcha tarjimasida emotsional birliklarning qayta yaratilishi oddiy leksik ekvivalent tanlash jarayoni emas, balki semantik mazmun, emotsional intensivlik, obrazlilik va pragmatik ta’sir o‘rtasidagi muvozanatni maqsad tilida qayta tashkil etuvchi murakkab lingvopragmatik jarayon ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. “Abadiy barhayot asarlar” turkumi / Nashrga tayyorlovchi X. Qodiriy. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 400 b.
2. قادري، عبد الله. الأيام الخوالي: قصة حب مريرة وقعت أحداثها في تركستان. ترجمة وتقديم د. محمد نصر الدين الجبالي. – القاهرة: دار المعارف، 2024. – 420 ص.
3. Nida E.A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – P. 70–78; 156 ff.
4. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. – London–New York: Routledge, 2011. – P. 230 ff.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York–London: Prentice Hall International, 1988. – P. 81–93; 104–113.
6. Shakhovsky V.I. The Category of Emotions in the Lexico-Semantic System of Language. – Voronezh, 1987



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.